



**VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILYOTGAN
JINOYATLARNING SABABLARI VA ULARGA NISBATAN JAZO
QO'LLASHNI TAKOMILASHTRISH**

Jamol Turopov Kamol o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va Diplomiya universitet

Xalqaro huquq fakulteti 2 -bosqich talabasi

jamolturopov6@gmail.com

Tel: 998912229939

ANNOTATSIYA : Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olish va sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlik va jazo choralarini yangi bosqichga ko'tarish va ta'sir choralarini liberallashtirish , shuningdek ular o'rtaqidagi huquqbazarliklarni oldini olish borasida yangicha tizim yaratish, voyaga yetmagan shaxslar uchun profilaktik suhbatlar olib borish jinoyatlarining o'sishini oldini olish, shu jumladan jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan huquq va burchlarini hamda sodir etgan ijtimoiy xavli qilmishini tushuntrish va ularning vasiy,vakil,homiylariga nisbatan ta'sir choralarini qo'llash institutini takomilashtrish borasidagi tahlillar va mulohazalar shuningdek takliflar ilgari surilgan.

KALIT SO'ZLAR: Voyaga yetmaganlar, huquqbazarlik, takomilashtrish, liberallashtirish,ma'sul shaxslar, javobgarlik , statistika, prognozlash ,ta'sir chorasi.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается создание новой системы предупреждения преступлений, связанных с несовершеннолетними, и повышение уровня ответственности и наказания за совершенные преступления и либерализация мер воздействия, а также предупреждение



правонарушений между ними, проведение профилактических бесед с несовершеннолетними до предотвращение роста преступности, в том числе анализ совершенствования института разъяснения прав и обязанностей несовершеннолетним, совершившим преступления и совершенное ими общественно опасное деяние, и применение мер воздействия в отношении их опекунов, представителей и попечителей, комментарии и вносятся предложения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: несовершеннолетние, правонарушение, улучшение, либерализация, ответственные лица, ответственность, статистика, прогнозирование, мера воздействия

Conclusion: This article discusses the issues of creating a new system of prevention of crimes related to minors, increasing the level of responsibility and punishment for committed crimes, and liberalizing measures of influence, as well as prevention of offenses between them. , conducting preventive interviews with minors in order to prevent the increase of crimes, including analyzing the improvement of the institution of explaining the rights and obligations to minors who have committed a crime and committed a socially dangerous act committed by them, measures of influence against them application; their guardians, representatives and patrons, comments and suggestions are included.

Key words: juveniles, delinquency, improvement, liberalization, responsible persons, accountability, statistics, forecasting, impact measurement.

KIRISH



Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek „Yoshlar-xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko’lamli islohotlarimizning samarali amalga oshirishida ular hal qiluvchi bo’lib maydonga chiqmoqda” . Hozirgi globbalashiyotgan zamon va tahlikali vaziyatda biz barcha yosh toifasidagi yoshlar va voyaga yetmaganlar bilan, kuchli profilaktik ishlarni va nazorat tadbirlarini olib borishimiz zarur. Chunki eng rivojlangan davlatlar ham yoshlarning intilishlari va ular yaratgan g‘oyalar bilan o’z ma’naviyatini va kelajagini shakllantradi. Voyaga yetmaganlar bilan uzlusiz ishlash kelajakdagi jamiyat poydevorining assosiy negizi hisoblanadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Voyaga yetmaganalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning sababi va kelib chiqish omillarini o’rganish va tizimli tahlil qiliish jarayonini amaldagi qonunchılıka asosan olib borish zarur. Voyaga yetmagan shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun zarur qonunchilik bazasini, shart-sharoitlarni yaratish, ularning huquqlari himoya qilinishini ta’minalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu faoliyatga bevosita aloqador BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasiga O‘zbekiston 1992-yil 9-dekabrdan qo‘sildi va ushbu hujjatkelib qoidalaridan chiqadigan majburiyatlarini izchillik bilan bajarib kelmoqda. o’rganish va tizimli tahlil qilish jarayonini amaldagi qonunchilikka asosan olib borish zarur. Voyaga yetmaganlar ayrim yuridik adabiyotlarda ikki toifaga bo’linadi;

-14yoshdan 16yoshgacha bo’lgan shaxslarni kichik voyaga yetmaganlar ;

-16yoshdan 18 yoshgacha bo’lgan shaxslarni katta voyaga yetmaganlar. [1]

Lekin jinoyat qonunchiligi jinoyat subyekti aynan 16 yosh va undan katta yoshdagagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga 18 yoshgacha voyaga yetmaganlik xususiyati qo’llaniladi.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har bir sodir etilgan jinoyat sabab va shartlari bo'lishi lozim, shuningdek voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarda ham. Voyaga yetmaganlar jinoyatchilining kelib chiqish sabab va shart sharoitlarini aniqlashda, o'smirlar o'rtaida o'tkaziladigan sostiologik tadqiqotlar ham muhim o'rinni egallaydi. Xususan, tadqiqotchi M.Xodjayev tomonidan ushbu muammo bo'yicha o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalarida diqqatga sazovor holatlar aniqlangan. Jumladan, tarbiya koloniyasida g'araz maqsaddagi jinoyatlari uchun jazoni o'tayotgan o'smirlarga: "Siz hayotda erishishni istayotgan muvaffaqiyatlardan eng muhimi qaysi?", deb berilgan savolga respondentlar tomonidan moddiy ta'minlanganlik, boylik-14,0 foiz, yuqori ma'lumotlilik, madaniyatlilik, bilimdonlik-4,0 foiz, mashhurlik, shon - shuxrat, hurmat -1,0 foiz, atrofdagilarning hurmatiga sazovor bo'lish -12,0 foiz, obro'li oshna – og'aynilar orttirish-7,0 foiz, katta haq to'lanadigan ish topish - 15,0 foiz, hech narsaga muhtojlik sezmasdan erkin yashash - 17,0 foiz, va boshqa javoblar - 2,0 foiz ekanligi ma'lum bo'lgan.[2]

Ko'rib turganimzdek sorovnomada ishtrok etgan o'smirlar asosiy foizni ya'ni 14 foizining asosiy maqsadi bu kelajakda boy bo'lish va yaxshi taminotga ega bo'lish. Shu o'rinda bir savol tug'uladi voyaga yetmaganlar o'rtaсидаги бу со'рвонманинг bunday yakunlanishiga nima sabab bo'lishi mumkun?

Asosiy sabab albatta ota ona hisoblanib, o'smirlarga nisbatan axloqiy tarbiyaning sust berilganligi va yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligi. Shuningdek Olingan javoblarni muayyan tartibda joylashtiradigan bo'lsak, yaxshi oilaga ega bo'lishga intilishdan tashqari, dastlabki uch o'rinni moddiy farovonlik, to'kinlik bilan bog'liq hayotiy muvaffaqiyatlar egallaydi. Yuqori ma'lumot olish, madaniyatli bo'lish, bilimdonlik hayotiy muvaffaqiyat sifatida oxirgi o'rinni egallaydi. O'quvchi yoshlar orasida olib borilgan sostiologik tadqiqotlar respondentlarning



80 foizi moddiy farovonlikni ta'minlashni o'z hayotining asosiy maqsadi deb hisoblashini ko'rsatdi. So'ralganlarning 40 foizi "qayg'usiz, maishatda yashash" imkoniyatini hayotdagi ideali, deb qayd etishgan. Moddiy ne'matlar egasi bo'lishga intilish sodir etilgan jinoyatning motivida bevosita namoyon bo'ladi. Jinoyat ishlarini o'rganish, jazoni o'tayotgan shaxslar orasida o'tkazilgan so'rovlardan jinoyatlarning quyidagi motivlarini aniqlash imkonini berdi: pul, boylik toplash-7,0 foiz, qimmatbaho buyumlar sotib olish-10,0 foiz, zaruriy hayotiy ehtiyojlarini qondirish -42,0 foiz, o'z oilasiga yordam berish 17,0 foiz, spirtli ichimliklar, giyohvand vositalar iste'mol qilish bilan bog'liq motivlar-13,0 foizni tashkil etadi. Bu raqamlardan ko'rish mumkinki, g'araz niyatdagi jinoyatlar asosan moddiy boylikni harid qilish uchun pulni egallash bilan bog'liq. Spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish bilan bog'liq motivlarning ulushi ham ancha katta. So'rovnomanning: «jinoyat sodir etgandan keyin nimani his qildingiz?» degan savolga jazoni o'tayotgan o'smirlar berishgan javoblar quyidagicha: qoniqishni- 3,0 foiz, sodir etgan qilmishi uchun jazodan qo'rqishni -24,0 foiz, oshnaog'aynilarning qoralashidan qo'rqishni -6,0 foiz, uyut hissini, o'z qilmishini qoralash kabi ijobiy tuyg'ularni his etishgani qayd etilgan.

O'smirlarning atigi 14,0 foizi jinoyat sodir etgani uchun ota-onasi urushishidan qo'rqqan. Bu bejiz emas, chunki jami holatlarning 24,0 foizida aybdorlarning oila a'zolari sodir etilayotgan jinoyatlardan xabardorlar, ayrim holatlarda esa, jinoiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaganlar. Bu ma'lumotlar "o'z oilasiga yordam berish" motivi hamda aybdorning o'g'irlangan moldan qanday foydalangani bilan bog'lanadi. "O'g'irlangan molni nima qilgansiz", degan savolga jinoyat ishtirokchilari shunday javob berishgan: oilamga berdim -24,0 foiz, o'zimga ishlatdim-35,0 foiz, oshna - og'aynilarimga berdim-12,0 foiz, sotdik, pulini bo'lishib oldik -10,0 foiz, birgalikdasovurdik -8,0 foiz, foydalanishga ulgurmadik, chunki uni ichki ishlar xodimlari olib qo'ydi -11,0 foiz. Ushbu ko'rsatkichlar bevosita ota ona bilan bog'liq yuqoridagilardan ota onalarning bir qismi bular

haqida xabardor bolgan va xattoki rag'batlantrgan.Oila bu muqqadas makon va amaldagi konstitutsiyda XIV bob „Oila “ deb nomlangan va ushbu bobning 64-moddasida „ Ota-onalar o’z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar”[3] degan norma mavjud bo’lib ushbu normaning tub mohiyatini hozirgi zamonda ota onalarga singdirish zarur. Ular faqat „ boqish “ normasini bajarib eng asosiy jamiyat uchun o’ta muhim bo’lgan „ tarbiyalashni “ unitishgani achinarli.

Shuningdek ,voyaga yetmaganlar o’rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat

:voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish,

ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minalash;

voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo’lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish;voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish[4].

Qonunchilikda berilgan ushbu normalarning faqatgina nazariy bo’lmasligini ta’minalash va alohida tizim ishlab chiqish lozim Yana bir statistikaga qaraydigan bolsak „Jinoyat sodir etgan shaxslarning tarkibi “ 13-15 yoshlilar o’rtasida 2020-yilda 185 ta, 2021-yilda 444 ta, 2022- yilda 678 tani tashkil etgan bolsa, 16-17 yoshlilar o’rtasida bu korsatkichlar mos ravishda , 1088, 2151 va 2434 tani tashkil etadi[5] . Shuni hisobga olish kerakki ushbu statistika shunchaki raqamlar emas va bular yildan yilga oshib bormoqda. Shuningdek ushbu royxatga 11,12, yoshli

bolalarning sodir etgan huquqbaزارликларining soni berilmagan. Lekin ushbu yosh toifasiga yoki uning vasiylariga nisbatan hech qanday chora korishning iloji yoq. Ular voyaga yetmagan shaxs va jinoyat subyekti bo'ladigan ayrim toifadagi jinoyat turlari uchun ham subyekt bo'lmaydi. Endi tasavvur qilaylik real voqealikka asoslangan keys „11 yoshli bola otasining mashinasini undan beso'roq haydardi va otasi bunga e'troz bildirmasdi. Bir kun og'li avtohalokatga uchradi va bir insonning hayotiga zomin boldi. Qonunchilikda esa „ Intellektual rivojlanish darajasi bo'yicha o'z tengdoshlaridan ilgarilab ketgan, ammo sodir etgan qilmishlari uchun qonunda o'rnatilgan javobgarlik yoshiga yetmagan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar. Voyaga yetmaganlarning turmush sharoiti va tarbiyasi o'zida 18 yoshga yetmagan aniq shaxsga nisbatan o'rnatilgan, uning turmush sharoitini va unga qo'llanilgan uslublar, usullar va tarbiyalash vositalarini tavsiflovchi holatlarni nazarda tutadi[6]”. Bundan ko'rindiki yuqoridagi holatda hech kim jazoga tortilmaydi, agar tortilganda ham bolaga nisbtan ta'sir chorasi „Bolalar koloniysi”ga jo'natish orqali qollanilsaham ertaga bu bolaning jamiyat bilan aloqasi normal bo'lishga kim kafolat beraoladi. Albatta hech kim jamiyat shunchaki undan bolaligi uchun qarz boladi va butun umr u „jinoyatchi” degan tamg'a bilan yashaydi. Bu holat avvalari kam bo'lган bo'lsa hozirgi vaqtida ularning soni ancha ortgan va bu faqat „Shaxsga qarshi jinoyatlar”da emas boshqa turdagи jinoyatlarda ham namoyon b'lmoqda. Agar sinchiklab e'tibor beradigan bo'lsak barcha sonlar, raqamlar ,jinoyatlarni isbotlovchi dalillarning yig'indisi voyaga yetmaganlarning ota onasiga borib taqalmoqda. Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan normalarni qog'ozdan olib chiqib amalda ishlata digan takomillashgan tizim ishlab chiqish vaqt kelgan. Shunindek huquqbaزارликларining dastlabki omilini topish va oldindan prognoz qilish lozim.

XULOSA



O'smirlar va yoshlar hayotini yaxshilash uchun ularning jinoyat yo'liga kirmasligini avvaldan o'yangan dastur va tizimlar orqali tartibga solish lozim. Voyaga yetmaganlarag beriladigan jazolarni liberallahtrish va aksincha ularga ma'sul bo'lган shaxslarga nisbatan og'rroq ta'sir chorasi qo'llash va bu orqali oila institutida ota onaning ma'sulyatini oshirish yuqori effektli natija bo'ladi. Shuningdek ushbu tizimni takomilashtrish uchun ba'zi o'zgarishlarni amalga oshirish zarur. Xususan;

1. „Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi nazoratszlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi tog'risidagi” qonunni takomilashtrish va profilaktika inspektorlariga voyaga yetmaganlar bilan ishlash uchun shaxsiy tizim va reja yaratilishini tekshirish,
2. Sudyalarga voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo qo'llayotganda sudyaning ishga nisbatan holati va psixologik yondashuvini kuchaytrish. Sudyalarga voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinalash borasida ularning holatini o'rganish uchun psixologlar tomonidan treninglar tashkilashtrish.
3. Jinoyat subyekt yoshiga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinouatlar uchun ularning „vakillariga “nisbatan jazo qo'llash va bu o'zgarishni qonun bilan mustahkamlash. „Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks” va „Jinoyat kodeksiga tegishlicha o'zgartrish va qo'shimchalar kiritish.
4. „Bolalar koloniysi “deb nomlangan jazoni o'tash muassasi tizimini qaytdan ko'rib chiqish va kerak bolsa voyaga yetmaganlarni jamiyatga naferat ruhida tarbiyalaydigan bunday tizimlardan voz kechib, jahon tajribasi asosida jamiyat va davlat uchun foydali boshqa muassasalarni tashkil etish .
5. Voyaga yetmagan shaxslarga „jazo “emas aksincha rag'batalantrish usulida ta'sir chorasi qo'llash va keying jinoyatning oldini olish uchun tizimli konsepsiya yaratish.



Shuningdek boshqa ishlamay qolgan normalarni ishlatish uchun harakatlarni amalga oshirish kerak. Chunki ertamiz egalari bo'lgan o'smirlar va bolalarni kelajagini barpo etishda biz barcha islohotlarni amalga oshirishimiz lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1., „Jinoyat huquqi” (Umumiy qism) Darslik. Toshkent-2020. TDYU
2. ,Voyaga yetmaganlar huququzarliklarining asosiy sabablari va unga imkon berayotgan shart-sharoitlar” N.Usmonova „Oriental Renaissance” ,September 2020.[B 382]
- 3.O'zbekiston Respublikasi „Konstitutsiyasi” XIV bob, 64-modda
- 4.O'zbekiston Respublikasi Qonuni,29.09.2010-yildagi O'RQ-263-son
- 5., „Jinoyat sodir etgan shaxslarning yoshi bo'yicha tarkibi” 2022-yil. <https://stat.uz> elektron manba.
- 6.M.X.Rustambayev, „O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi”. Tom 2. Umumiy qism jazo haqida ta'limot . Darslik 2-nashr.T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Harbiy -texnik instituti, 2018 yil.[B 282]

